

Amirova Mahliyo

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Eronda yuz bergan “Islom inqilobi”dan so'ng rasmiy poytaxt Tehronning boshqa davlatlar bilan aloqalari, Eron va Iroq o'ratasidagi urush sabablari va Misr davlati bilan siyosiy uzoqlashuv holati xorijiy ommoviy axborot vositalari ma'lumotlari asosida yoritib berildi.

Kalit so'zlar: Islom inqilobi, Uchinchi kuch, Kemp-Devid, neft, Islom bayrog'i, sovuq urush, ichki siyosat, fraksiya, iqtisodiy sherik, Shimoliy qatlam, anti-imperializm.

Eron va Misr davlatlarining o'zaro munosabatlari tarixiga nazar tashlasak, unda turli xil munosabatlar, rang-barang davrlarni ko'rishimiz mumkin. Bunga sabab ikki mamlakat tarixida inqiloblar sonining ko'pligi va har ikki davlat siyosatining bir necha bor o'zgarganligi oqibati deyishimiz mumkin. Eron va Misr davlatlari tarixan qadimdan deyarli bir xil islom madaniyati ostida rivojlandilar. VII asrlarda Arab xalifaligining kuchayishi oqibatida ikkalasi bitta davlat tarkibiga kiridilar. Lekin, arab xalifaligi qulagach Eron hududining ko'pchilik hududi islom dinining shialik mazhabiga e'tiqod qiluvchi guruhlar qo'l ostiga o'tgan bo'lsada, qolgan qismlari O'rta Osiyodagi kuchli davlatlar tarkibiga kirib ketgan edi. Mustamlakalar davrida esa Misr Angliya nazorati ostida bo'lsa, Eron esa rasman mustaqil bo'lsada, bir nechta qudratli davlatlar uning katta hududi nazorat ostida ushlab turgan. XX asrning 30 yillarida ular o'rtasidagi munosabatlar ancha yaxshilana bordi. Jumladan, 1939-yilda Tehronda Misrning birinchi elchixonasi ochildi va elchilik vazifasini Yusuf Zulfiqor poshsho amalga oshirishga kirishdi. Aynan mana shu yil Misr qiroli Farruh I ning singlisi malika Favziya Eronning valiahd shaxzodasi Muhammad Rizo Pahlaviyga turmushga chiqadi. O'sha paytda arab davlatlari orasida faqatgina Misrning Eronda elchixonasi bor edi. Lekin Kemp-Devid shartnomasidan so'ng bu ikki mamlakat o'ratasidagi munosabatlarda haqiqiy “muzlash davri” boshlandi. Bundan tashqari, Erondagi “islom inqilobi” ham vaziyatni yanada yomon ahvolga soldi. Inqilobdan keyin Eronning tashqi siyosatining asosi salbiy muvozanat tamoyiliga asoslangandi. Amerika Qo'shma Shtatlari bilan imzolangan barcha harbiy bitimlar bekor qilindi, barcha AQSh harbiy bazalari va Erondagi kuzatuv stantsiyalari birin ketin yo'q qilindi. Bundan tashqari Eron siyosatidagi AQShning ta'siri SSSR bilan

munosabatlarni sovuqlashishiga olib kelgandi. Eron Islom Respublikasi “Uchinchi kuch” siyosatini turli ko‘rinishlarda amalga oshirdi. Ya’ni endi Eron o‘ziga yangi ittifoqchi va iqtisodiy sherik izlashni boshlagandi. Bu yo‘lda Xitoy, Yaponiya, G‘arbiy Yevropa, Shimoliy va Janubiy Koreya bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni mustahkamlashga harakat qilib boshladi. Neft zaxiralari Tehronga ushbu mamlakatlar o‘rtasida erkin harakatlanish imkonini berardi. Eronning tashqi siyosatdagi yana bir maqsadi Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasida asosiy kuch bo‘lib shakllanish edi. Ayni paytda, mintaqaviy tashqi siyosatning asosiy poydevori islom mafkurasi bo‘lib qolgandi. Yaqin Sharqdagi obro‘cini qayta tiklash yo‘lida Livandagi shia jamoasiga yaqinlashishga urinishi Eronga o‘z maqsadlariga erishish uchun yordam bera oldi. Iroqning fors ko‘rfazi hududining konservativ Arab rejimlari bilan yaqinlashishiga javoban Eron Suriya bilan ittifoq tuzdi. Bu munosabatlar Eron-Iroq urushini boshlanishiga sabab bo‘lib qoldi. AQShning Eronga qurol yetkazib berishi orqali ta’sir o‘tkazishga urinishlari SSSR ning Eron bilan o‘zaro munosabatlarini kuchaytirishiga sabab bo‘lgandi. Bunga qarshi J.Karter ma’muriyati SSSRining Janubiy chegaralarida "Islom kamarini" mustahkamlash g‘oyasini ko‘rib chiqdi va bu yo‘lda Humayniyning diplomatik qo‘llab-quvvatladi. Bu holat AQSH Islomiy inqilobni yoqlaganini anglatmasdi, aksincha AQSH ma’muriyati vaziyatdan foydalanishga intilganini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi “Islom zonasi” siyosati SSSRning harakatlariga to‘sqinlik qilishi kerak bo‘lgan “Shimoliy qatlam” ya’ni Amerika uning ittifoqchilari siyosatining o‘zgarishiga bir misol edi. Xashemi Rafsanjani davrida Islom doirasida mo‘tadil iqtisodiy va siyosiy kursga ergashib, Eron va AQSH o‘rtasidagi munosabatlarni qayta tiklashga hayrixoh ekanini bildirib o‘tdi. O‘z navbatida R. Regan boshliq AQSH ma’muriyati ham strategik jihatdan muhim Eronda muvozanatni tiklashga intilib, Rafsanjani tashabbusini qo‘llab-quvvay boshladi. SSSR va Eron Islom Respublikasi o‘rtasidagi o‘sha paytdagi munosabatlar ehtiyotkorlik va qisman noaniqlik holatida bo‘lgan edi. 1981-yilda XXVI Kongressida Eron hukumati SSSR Kommunistik partiyasini Islom erkinligi uchun kurashishi mumkinligi bilan ogohlantirgandi. Bu juda yaqin tarixda bo‘lib o‘tgan Islom inqilobi bilan tasdiqlanishini ta’kidlab o‘tgan edi. Humayniy shuningdek, SSSRining reaksiyasi ham Islomiy shiorlar bilan qarshi inqilobiy isyonlarni qo‘zg‘atish mumkin ekanligi bilan ta’kidlab o‘tdi [3]. Bu fikrlarning Sovet davlati asoschisi V.I.Leninning panislamizmga qarshi g‘oyalari va umuman burjua millatchiligiga qarshi ogohlantirishi bilan o‘xshashligi hayratlanarli holat. Kommunistik mafkurada burjua millatchilik muammosini aks ettirishi o‘sha davrdagi Eron-Sovet munosabatlariga ta’sir ko‘rsatishda davom etib keldi. Bir

tomondan, Kengashlar Islom Respublikasining diniy millatchiligining “antimperializm” g’oyasini ma’qulladilar, boshqa tomondan esa, Humayniy davlat ichkarisida va chetdagi sotsializmni qo’llab-quvvatlovchi muxolifat tomonidan tanqid ostiga olingan edi. Inqilobdan keyingi davrda TUDA va boshqa Eron chap guruhlarining mag’lubiyatidan so’ng, Sovet-Eron munosabatlar yanada keskinlashgan edi. E’tiborlisi shundaki bu paytda SSSRni ko’pchilik arab davlatlari jumladan Misr bilan ham aloqalari ancha yaxshilangan edi. Sovet davlat arbobi va olim Jorj Arbatovning fikriga ko’ra, “tinchlik-osoyishtalik siyosati SSSRning Fors ko’rfazi zonasiga o’tishiga to’sqinlik qiladi, bu esa muqarrar ravishda uchinchi jahon urushiga olib kelishi mumkin” degan edi Arbatov. Biroq, sotsialistik bazani himoya qilish nafaqat strategik, balki mafkuraviy xavfsizlikka ham erishishni nazarda tutganligi sababli SSSR chegarasida sodir bo’lgan Islomiy inqilob kabi madaniy harakatlarni potensial xavfli omillar deb hisoblanar edi. Shuning uchun SSSR Eron-Iroq urushining oqibatlarini o’ylab, Eronni to’xtatishga urindi. SSSR Eronning siyosiy gegemonyasini mafkuraviy tahdid sifatida tarqalishini ko’rib chiqqandi. Urushning so’nggi yillarida Eronning harbiy yutuqlari va AQShning bu mamlakatda yana bir bor ta’sir o’tkazishga urinishlari SSSRning bu voqealarga bo’lgan reaksiyasini kuchaytirib yubordi. Bu Eronning Moskva va Vashington o’rtasidagi “sovuq urush” oqibatida yuzaga kelgan keskinlikdan foydalanishga va Iroqqa qarshi urushni davom ettirish imkonini bergan edi. 1988-yilda qayta tiklash, super kuchlar o’rtasidagi do’stona munosabatlar manyovr imkoniyatini yo’qqa chiqardi. Urushni davom ettirish va Eronda yuzaga kelgan keskin iqtisodiy va harbiy qiyinchiliklar hukumatni tinchlikka erishishga majbur qilib bordi. Xulosa qilib aytganda XX asr 70-yillar oxirida yuz bergan “Islom inqilobi” Eronning nafaqat ichki balki, tashqi siyosatini keskin o’zgarishiga sababchi bo’ldi. Inqilob oqibatida hokimiyatga Oyatulloh Humayniy boshliq dindorlar keldi. Ularning boshqaruvi tabiiy-ki, diniy aqidalarga asoslanib monarxiya tuzumidagi Erondan keskin farq qilar edi. Shu sababli ham, oldin iliq munosabatlar o’rnatilgan mamlakatlar bilan aloqalar batamom uzilib, ular o’rniga yangi Eron talablariga mos davlatlarni topishga harakat boshlandi. Misr bilan tashqi aloqalar esa boshqacharoq xarakterga ega bo’lib, Yaqin Sharq va sionizm borasidagi fikrlar to’qnashuvi, bu ikki mamlakat o’rtasida munosabatlarning yomonlashuviga sababchi bo’lgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Iran MP says Tehran not in hurry to resume ties with Cairo. URL:
<http://isna.ir/en/news/9005-12426/Iran-MP-says-Tehran-not-in-hurry-to-resume> (дата обращения: 09.08.2011).
2. Iran seeks alliance to protect Syria against US meddling. URL:
<http://en.mehrnews.com/news/47418/Iran-seeks-alliance-to-protect-Syria-against-USmeddling> (дата обращения: 10.08.2011).
3. Imam Khomeini, father of Islamic Awakening // URL:
<http://www.leader.ir/langs/en/index.php?p=contentShow&id=9483> (дата обращения: 25.11.12).
4. Мамаражабов Б.(2023).Студия Арабистонидаги ўзбек мухожирлари тарихи: Муваффақиятли ассамбля ва йўқотилган идентиаллик. Ижтимоий гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально- гуманитарных наук/Actual problems of Humanities and Social sciences., 3(S/6).
5. Мамаражабов. В .N.M.O.G.(2023). Markaziy Osiyoda arablar bilan bog'liq ijtimoiy qatlamlar. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and Social sciences.3(5).1048-1052
6. Мамаражабов В.N.M.O.G. (2022). Arabiston yarimorolida davlatchilikning shakllanishi. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and Social sciences.2(10). 118-121.